



AFAZIYALI NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILISH JARAYONLARINI XUSUSIYATLARI

Abutova Shohista O'mirbek qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Logopediya
kafedra o'qituvchisi

Isroilova Xumora Akromjon qizi

Logopediya yo'nalishi 204 guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11655845>

Annotatsiya Afaziya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar va ularing bilish jarayonlarini o'rganish. Afaziya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda bilish jarayonidagi muomosini o'rganish jarayoni.

Аннотация: Афазия дети с нарушениями речи и изучение их когнитивных процессов. Афазия-это процесс изучения своего поведения в познавательном процессе у детей с речевыми нарушениями.

Annotation: Aphasia is the study of children with speech defects and their cognitive processes. Aphasia is the process of studying the muomos of the cognitive process in children with speech impairments.

Tayanch so'zlar va tushunchalar: nutq, tovush, nafas, talaffuz, rivojlanish, ovoz, artikulyatsiya.

Ключевые слова и понятия: речь, звук, дыхание, произношение, развитие, голос, артикуляция.

Key words and concepts: speech, sound, breathing, pronunciation, Development, voice, articulation.

Afaziya-nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi, u odatda bosh miyaning lokal jaroqatlanishi natijasida yuzaga keladi.

Afaziyani keltirib chiqaruvchi sabablarga quyidagilarni kiritish mumkin: miyada qon aylanishining buzilishi (ishemiya, gemorragiyalar), bosh miya jaroqatlari, o'smalar qamda bosh miyaning infeksiya kasalliklari, qon tomir tizimidagi buzilishlari, kasalliklari sababli afaziya ko'proq kattalarda yuz beradi. qon tomir tizimidagi bosh miya qon tomirlarining yorilishi natijasida yuz beruvchi anevrizm, tromboemboliya, revmatizm natijasida paydo bo'ladigan yurak paroklari, miya-qobiq jaroqatlari o'smirlar va yoshlarda qam kuzatiladi. Afaziyada logopedik ta'sir nutq tarkibining ongli tahlilini tarbiyalash, fonematik idrokni rivojlantirishga, nutq tarkibini tushunishga qaratilgan bo'ladi. Sensor afaziyali bolalarni o'qitishda, faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan, tovush va morfologik tahlilni va nutqning mazmun tomonini shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus usullar qo'llaniladi. Bunda tushunishning, o'z nutqining,



bilish faoliyatining rivojlanmaganligi darajasi, bola shaxsiyatining umumiy xususiyatlari hisobga olinadi.

Bola nutqiy faoliyatining barcha tomonlariga ketma-ket sistemali ta'siri korreksion ishning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Idrok. Idrokning ta'rifi va uning xususiyatlari. Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va xodisalarning kishi ongida butunligicha aks etishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan xolda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyligi (konstantligi) va anglashilganligidir.

Idrokning predmetliligi ob'ektivlashtirish xodisasi deb atalgan xodisada, ya'ni tashqi olamdan olinadigan axborotlarning o'sha narsaga mansubligida ifoda qilinadi.

Predmetlilik idrokning belgisi sifatida hatti-harakatni boshqarishda alohida rol o'ynaydi. Biz narsalarga ularning ko'rinishiga qarab emas balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishimizga muvofiq xolda, yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab ham baholaymiz. Predmetlilik pertsektiv jarayonlarning o'zini ya'ni idrok jarayonlarning bundan keyingi shakllanishida ham rol o'ynaydi.

Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitliligidir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli ularoq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. Yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitligi uning strukturaliligi bilan bog'langandir. Idrok ma'lum darajada bizning bir laxzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiy yig'indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavhumlashgan va bir muncha vaqt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz. Agar kishi biror ko'yni tinglayotgan bo'lsa, oldinroq eshitgan oxangi yangisi eshittirila boshlagandan keyin ham uning kulog'iga chalinayotganday tuyulaveradi.

Idrokning yaxlitligi va strukturaliligi manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlaridir, va ikkinchi tomondan insonning konkret faoliyatida gavdalanadi, ya'ni analizatorlarning reflektor faoliyati natijasidir.

Idroknig doimiyligi, konstantligi narsani idrok qilish sharoitlari o'zgarishiga qaramay, narsaga xos bo'lgan kattalik, shakl, rang va boshqa xususiyatlarning



idrokimizga nisbatan bir xilda aks etishidir. Masalan, yoritish darajasi o'zgarishiga qaramay, biz qorni oq, ko'mirni qora narsa sifatida idrok qilaveramiz. Qizil chiroq ostida kitob saxifasi qizil bo'lib ko'rinsa ham uni oq deb, samolyotdan qaraganda erdagi odamlar va narsalar kichkina bo'lib ko'rinsa ham ularni odatdagiday kattalikda deb idrok qilaveramiz. Kitob qanday ko'rinsa ham uni to'rtburchak deb, stakandagi qoshiq siniq ko'rinsa ham uni butun deb idrok qilamiz.

Narsalarning shakli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok qilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantligina tevarak atrofdagi narsalarni aslida qanday bo'lsa shundayligicha ob'ektiv ravishda bilishga imkon beradi.

Pertseptiv sistemaning faol ta'sir ko'rsatishi idrok konstantligining haqiqiy manbaidir. Bir narsaning bir necha ko'rinishda bo'lishi uning invariantligi deb, ya'ni obraz invariantligi, xilma xilligi deb aytiladi.

Idrok yaxlitligi va konstantligi kishining o'tmish tajribasiga bog'liq bo'lib, bu xususiyat appertsepsiya deyiladi.

Fazoni idrok qilish. Fazoni idrok qilinishi kishining o'zini kurshab turgan muhitni chamalashining mukarrar shartlaridan bo'lib, uning ushbu muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatida katta rol o'ynaydi. Fazoni idrok qilish ob'ektlarning shakli, xajmi va o'zaro birgalikda joylashuvi, ularning satxi, olisligi va yo'nalishlarining idrok etilishini o'z ichiga oladi.

Fazoni chamalashda harakat analizatori alohida rol o'ynaydi. Fazoni chamalashning maxsus qurollari qatoriga analizatorlar faoliyatida har ikkala yarim sharlar o'rtasidagi nerv bog'lanishlarini: binokulyar ko'rishni, binoural eshitishni, terining bimanual to'yishini, dirinik xid bilishni va shu kabilarni kiritish lozim.

Ko'zlarning turli olislikdagi narsalarini aniq ravshan ko'rishga moslashuvi 2 ta mexanizm-akkomodatsiya va konvergentsiya yordamida yuz beradi.

Akkomodatsiya-ko'z gavharining egriligini o'zgartirish yo'li bilan uning aksini sindirib qaytarish qobiliyatini o'zgartirish demakdir. Akkomodatsiya, odatda konvergentsiya bilan ya'ni ko'rish o'qlarini qayd qilinayotgan narsaga yo'naltirilishi bilan bog'liqdir. Konvergentsiya burchagi bevosita masofa indikatori ya'ni o'ziga xos masofa o'lchagich (dalnomer) sifatida foydalaniladi.

Tafakkur. Sezgi, idrok orqali narsa va xodisalarning sezgi organlari orqaligina bilish mumkin bo'lgan xususiyatlari aks etsa, bu bilan bilish doirasi cheklandi degani emas. Narsa va xodisalar bevosita bilib bo'lmaydigan xususiyatlarga, o'zaro aloqaga, rivojlanish qonuniyatiga ega. Masalan, er bilan quyoshgacha,



yulduz va oygacha bo'lgan masofani bevosita aniqlash mumkin emas; elektr tokining simdan o'tishini, atom tuzilishini, yorug'lik tezligini, uzoq tarixiy jarayonlar rivojlanishini va shunga o'xshashlarini bevosita kurish mumkin emas. Shunga qaramay, inson o'lchaydi, aniqlaydi, bilib oladi. Shunday qilib, vositali aks ettirish tafakkur jarayonining xususiyalaridan biridir. Tafakkurning yana bir xususiyati–bu voqelikni umumlashtirilgan xolda aks ettirilishidir.

Tafakkur voqelikni umumlashtirilgan xolda, qonuniy bog'lanishlarni so'z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va xodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Odam tafakkuri til bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur, barcha psixik jarayonlardek, miya faoliyatining natijasidir. Odam fikr yuritayotganda miyada murakkab jarayonlar sodir bo'ladi, miya pustlogida markazlar o'rtasida bog'lanishlar yuzaga keladi. Xilma-xil muvaqqat nerv bog'lanishlari (assotsiatsiyalar)ni hosil qilish miya pustlog'ining murakkab sintetik faoliyatidir. Fikrlar muvaqqat nerv bog'lanishlari differentsirovka qilinishi, ya'ni ayrim nerv bog'lanishlarini mustahkamlashi, boshqalarining tarmoqlanishi natijasida mukammallashadi va aniqlanib boradi. Miya pustlog'ining bunday faoliyati analitik faoliyat deyiladi.

Tafakkur turlari va aqlning muhim sifatlari. Tafakkurning konkret-amaliy, konkret obrazli, abstrakt turlari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ayupova M.Yu., X.M.Po'latova. Logopedik ritmika. Darslik. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
2. L.R.Mo'minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. D.A.Nurkeldiyeva, M.Yu.Ayupova, Z.M.Axmedova "Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar" Toshkent 2007
3. Muminova L, Shoaxmedova S. „ Rivojlanishida nuqsoni bo'lganbolalar va o'smirlarga xozirgi zamon logopedik yordamni tashkil etish :muammo va yechimlar" maqola Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar 2022